

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATEARIALLARI



1-JILD | 4-SON

2025-YIL

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, dekabr

TOSHKENT-2025

ISBN-978-9910-8337-5-5

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 4-son (dekabr, 2025-yil). – 55 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 9-dekabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar" mavzusidagi IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, strategiya, ustuvor yo'nalishlar, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, texnologik taraqqiyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Rakhimov Oktyabr, Tulayeva Soxiba

KASBIY TAVAKKALCHILIKNI KAMAYTIRISHDA XAVFLARNI TASNIFINING TUTGAN O'RNI 4-7

Safojev Nuriddin

KVANT NUQTALI TEXNOLOGIYADA QUUVAT TAHLILI Hujumlari va Kriptografik sxemalarni loyihalash 8-11

TARIX FANLARI

Begaliyeva Aysha

ISLOHOTLARDAN KEYINGI DAVRDA ROSSIYA IMPERIYASI TEMIR YO'L TRANSPORT TIZIMINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI 12-14

IQTISODIYOT FANLARI

Murtazayev Isabek

ZARAFSHON MINTAQASIDA BUXORO VILOYATINING HUDUDIY-IQTISODIY SALOHİYATI VA TARMOQLARARO IXTISOSLASHUVI 15-18

FALSAFA FANLARI

Maxmudov Izzatillo

KORRUPSIYAGA QARSHI SIYOSAT VA IJTIMOİY HIMOYA ISLOHOTLARI O'ZARO BOG'LIQLIGI 19-22

FILOLOGIYA FANLARI

Saydullayeva Aziza

"YALMOG'IZ KAMPIR" ERTAGI: KOMPOZITSIYA, KONFLIKT VA YOVUZ QAHRAMON TAHLILI 23-25

Xamrakulova Farangiz

TEMPORAL METAFORALARINING AQLIY VA MADANIY IDROKKA TA'SIRI 26-28

YURIDIK FANLAR

Normurodova Behro'za

RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO HAMKORLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI 29-36

PEDAGOGIKA FANLARI

Xaqiqatbekov Zafarbek

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR SALOMATLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA UNIVERSITET RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH 37-42

Rustamova Shoxista

TALABALAR TADQIQOT ISHLARINI XALQARO ILMIY PLATFORMALARDA INTEGRATSIYALASH: IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR 43-48

Tagayev Odil

VIRTUAL VA KENGAYTIRILGAN HAQIQAT (VR/AR) TEXNOLOGIYALARI DIDAKTIK IMKONIYATLARI 49-51

Xakimova Xosiyat

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING NUTQ KO'NIKMALARINI BAHOLASHNING DIAGNOSTIK MODELI 52-54

IQTISODIYOT FANLARI

ZARAFSHON MINTAQASIDA BUXORO VILOYATINING HUDUDIY-IQTISODIY SALOHIYATI VA TARMOQLARARO IXTISOSLASHUVI

Murtazayev Isabek Bazarbayevich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,
Iqtisodiyot fakulteti, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası dotsent v.b.,
i.f.f.d. (PhD).

Email: Isabekmurtazayev72@gmail.com

ORCID: 0009-0005-9012-1918

Annotatsiya. Tezisdá Zarafshon mintaqasining tarkibiy qismi bo'lgan Buxoro viloyatining hududiy-iqtisodiy salohiyati, tarmoqlararo ixtisoslashuvi va tabiiy-xo'jalik resurslaridan foydalanish xususiyatlari tahlil qilingan. Viloyatning respublika iqtisodiyotidagi o'rni, jumladan YalM, sanoat, qishloq xo'jaligi, investitsiya, xizmatlar va tashqi savdo tarmoqlaridagi ulushi ifodalangan. Buxoro viloyatining neft-gaz sanoati, qurilish materiallari xomashyo bazasi, agrar tarmoqlari hamda turizm infratuzilmasining rivojlanishi uning strategik ahamiyatini belgilab bergan. Shuningdek, hududning mehnat resurslari, bandlik tuzilmasi, tabiiy-xo'jalik mintaqaga ajratilishi va ma'muriy-hududiy markazlarning iqtisodiy funksiyalari ilmiy asosda yoritilgan. Mintaqaning umumiy rivojlanishida Buxoro viloyatining sanoat-agrar salohiyati, transport-logistika o'rni va tarixiy-madaniy merosi muhim omil sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: hududiy rivojlanish, sanoat-agrar salohiyat, neft-gaz sanoati, qishloq xo'jaligi, turizm infratuzilmasi, mehnat resurslari, hududiy ixtisoslashuv.

TERRITORIAL-ECONOMIC COMPETENCE AND INTERSECTORAL SPECIALIZATION OF THE BUKHARA REGION IN THE ZARAFSHAN REGION

Murtazayev Isabek Bazarbayevich

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan,
Faculty of Economics, Department of Economic Theory, Acting Associate Professor,
PhD.

Annotation. The thesis analyzes the territorial and economic potential of Bukhara region as an integral part of the Zarafshan area, its intersectoral specialization, and the characteristics of utilizing natural and economic resources. The study highlights the region's role in the national economy, including its share in GDP, industry, agriculture, investment, services, and foreign trade. The strategic significance of Bukhara region's oil and gas industry, construction-materials raw-material base, agricultural sectors, and tourism infrastructure is emphasized. The thesis also examines, on a scientific basis, the region's labor resources, employment structure, natural-economic regionalization, and the economic functions of administrative-territorial centers. Furthermore, it evaluates the industrial-agrarian potential, transport-logistic position, and historical-cultural heritage of the region as key factors contributing to the overall development of the Zarafshan area.

Key words: territorial development, industrial-agrarian potential, oil and gas industry, agriculture, tourism infrastructure, labor resources, territorial specialization.

Buxoro viloyati Zarafshon mintaqasining g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, maydoni 40,22 ming km.kv. ni tashkil etadi, u O'zbekiston jami maydonining 9,0 % ini egallaydi (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatidan keyingi 3-o'rin). Doimiy aholisining soni, 1-yanvar 2025-yil holatiga ko'ra, 2009,7 ming kishi bo'lib, mamlakat jami aholisining 5,6 % iga teng (hududlar ichida 9-o'rin). Aholi zichligi 50 kishi km.kv. Bu jihatdan viloyat respublika hududlari orasida oxiridan 3-o'rinni egallaydi.

Buxoro viloyati ma'muriy-hududiy jihatdan 11 ta qishloq tumani, 11 ta shahar (2 tasi - Buxoro va Kogon - viloyatga bo'ysunuvchi), 68 ta shaharcha va 1473 ta qishloq aholi punkti kiradi (72-jadval).

Viloyatning O'zbekiston YaIMdagi ulushi 5,2 %, sanoat mahsulotidagi salmog'i 4,9 %, qishloq xo'jaligi mahsulotidagi hissassi esa 9,6 % ga teng (2024-y.). Mintaqa hissasiga mamlakat jami chakana savdo aylanmasining 5,7 % i, pullik xizmatlarning 4,3 % i, investitsiyalarning 7,8 % i, qurilish ishlarining 6,2 % i va tashqi savdoning 2,5 % i to'g'ri keladi.

Viloyatning g'arbiy va janubiy qismlarida neft-gaz va gaz konlari mavjud bo'lib, ularning ayrimlarida zaxiralar ancha kamaygan bo'lsa (Gazli, Uchqir va h.k.), ayrimlari yaqin vaqtdan boshlab ishga tushirilgan (Qandim konlari guruhi). Undan tashqari, viloyat hududida turli qurilish xomashyosi ham qazib olinadi. Qurilish xomashyosi ko'proq Kogon tumani hududidagi kichik ko'tarilmalarda joylashgan. Quljuqtov tog'larida grafit (Tasqazgan) va mineral bo'yoqlar (Jongeldi-Toshquduq) konlari mavjud.

Funktsional jihatdan Buxoro shahri ko'p funktsiyali viloyat markazi, yirik turistik markaz hisoblanadi. Boshqa shaharlardan Kogon sanoat-transport markazi, G'ijduvon ko'p funktsiyali tumanlararo markaz, Qorovulbozor va Gazli tor ixtisoslashgan sanoat shaharlari (resurs shaharlar yoki monoshaharlar), qolgan shaharlar esa mahalliy agrosanoat va servis funktsiyali tuman markazlari hisoblanadi.

Viloyat mehnat resurslarining soni, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 1074,7 ming kishini tashkil etgan bo'lib, bu jami aholining 53,5 % iga teng (respublika bo'yicha mehnat resurslarining jami aholidagi ulushi 54,2 %). Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi 79,7 % ni, iqtisodiy nafaol aholi esa 20,3 % ni tashkil etadi. Iqtisodiy faol aholi tarkibida esa iqtisodiyotda band aholining salmogi 91,1 %, ishsizlar ulushi esa 8,9 % ga teng.

Iqtisodiy faoliyat turlaridan eng ko'p band aholi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (28,8 %), qurilish (12,6 %), sanoat (12,0 %), ta'lim (9,5 %), savdo (9,0 %), tashish va saqlash (5,2 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (5,0 %) kabi sohalarga to'g'ri keladi (2024-y.).

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida mintaqa YaHMning 42,7 % i (respublika bo'yicha 23,4 %), sanoat va qurilishda 25,0 % i (respublika bo'yicha 31,1 %), xizmatlar sohasida 27,9 % i (respublika bo'yicha 38,7 %) yaratildi, sof soliqlar ulushi esa 4,4 % (respublika YaIMdagi ulushi 6,8 %) ni tashkil etgan.

Buxoro viloyati hududi tabiiy-xo'jalik jihatdan ikkita yirik qismga - Buxoro-Qorako'l vohasi va uning atrofidagi cho'l-yaylov mintaqasiga bo'linadi. Buxoro-Qorako'l vohasi qadimdan sug'oriladigan dehqonchilik maqsadlarida o'zlashtirilgan Zarafshon daryosining del'tasida shakllangan. Hozirgi vaqtda voha yerlari, asosan, Amu-Buxoro kanali orqali yetkazilayotgan Amudaryo suvlari bilan sug'orilmoqda. Buxoro-Qorako'l vohasi xo'jaligi ko'p tarmoqli dehqonchilik va chorvachilik, yengil va oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan.

Viloyatning cho'l-yaylov qismi Qizilqum va Sandikli cho'llarini qamrab oladi. Uning xo'jalik majmuasi cho'l-yaylov chorvachiligi, xususan, qorako'lchilik, neft-gaz va qurilish materiallari sanoatiga ixtisoslashgan.

Ma'muriy-hududiy birliklar kesimida olganda, viloyat iqtisodiyotining hududiy tarkibida Qorovulbozor tumani viloyatdagi eng yirik sanoat korxonasi va tashqi iqtisodiy aloqalar sub'ekti hisoblanadigan Buxoro neftni qayta ishlash zavodi hisobiga alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, yengil va oziq-ovqat sanoati, xizmatlar sohasi, ayniqsa, turizm va savdo xizmatlari yaxshi rivojlangan viloyat markazi - Buxoro shahri - ham viloyat xo'jaligining

hududiy tarkibida salmoqli mavqega ega. Qishloq xo'jaligining hududiy tarkibida esa Jondor, G'ijduvon, Buxoro, Peshko' va Romitan tumanlari katta ahamiyatga ega hududlar hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, Zarafshon mintaqasi bugungi kunda respublika mintaqalari ichida o'ziga xos xususiyatga ega. Jumladan, Samarqand viloyati aholisi soni bo'yicha mamlakatda yetakchi o'rinni egallagan bo'lib, qishloq xo'jaligi tarmog'idagi ulushi yuqori sanaladi. Viloyatning respublika YaIMdagi hissasi 7,0 % ni tashkil etganiga qaramay, kishi boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulot nisbatan past ko'rsatkichda. Mineral xomashyo resurslari zahirasi cheklangan bo'lsa-da, mavjud salohiyatdan samarali foydalanish, ayniqsa, sanoat, agrar kompleks, ta'lim va turizm sohalaridagi rivojlanish, viloyatni mintaqaviy iqtisodiy o'sishning muhim ustuniga aylantirmoqda. Shu bilan birga, Samarqand shahrida shakllanayotgan aglomeratsiya jarayonlari iqtisodiy faollik va hududiy integratsiyani yanada chuqurlashtirishga zamin yaratmoqda.

Navoiy viloyati respublikaning eng sanoatlashgan hududlaridan biri bo'lib, uning YaIMdagi ulushi 7,5 % ni tashkil etadi va kishi boshiga to'g'ri keladigan YaHM ko'rsatkichi bo'yicha mamlakatda yetakchi o'rinda turadi. Viloyat ulkan mineral resurslar salohiyatiga, jumladan, oltin, uran va nodir metallar kabi strategik ahamiyatga ega boyliklarga ega. Mazkur zaxiralar asosida faoliyat yurituvchi Navoiy kon-metallurgiya kombinati va bir qancha respublika ahamiyatiga ega korxonalar hamda "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda va tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bilan birga, viloyatda iqtisodiy faollik yuqori darajada markazlashgan bo'lib, kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi cheklangan. Bu esa viloyatning sanoatga moyil iqtisodiy tuzilishidagi muvozanatni ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Buxoro viloyatining iqtisodiy salohiyati, ayniqsa, neft-gaz resurslari va ularni qayta ishlash imkoniyatlari nuqtai nazaridan, respublika miqyosida strategik ahamiyatga ega. Viloyat O'zbekiston YaIMining 5,2 % ni ta'minlashi bilan birga, yuqori agrar salohiyat va yetarli mehnat resurslari bilan ajralib turadi. Buxoro shahrida shakllangan rivojlangan turizm infratuzilmasi, jahon ahamiyatiga molik tarixiy-madaniy meroslar asosida turizm sektorida iqtisodiy faollikni kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, hududdagi tabiiy resurslar tarkibining cheklanganligi va iqtisodiyotning asosan yoqilg'i hamda agrar sektorlarga ixtisoslashuvi uning diversifikatsiya darajasini pasaytiradi. Bu esa kelgusida innovatsion va ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishni talab etadi.

Zarafshon mintaqasi - O'zbekistonning iqtisodiy geografiyasida strategik ahamiyatga ega bo'lgan, tabiiy resurslar salohiyati va sohaviy ixtisoslashuv jihatidan bir-birini to'ldiruvchi Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlarini o'z ichiga olgan integral hududiy tizimdir. Mintaqaning respublika yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2024-yil holatiga ko'ra 22,7 % ni tashkil etgan holda, uning sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish singari tarmoqlardagi hissasi ortib bormoqda. Mintaqaning afzallik tomonlari - boy mineral-resurs zahiralar, taraqqiy etgan sanoat infratuzilmasi, transport-logistika aloqalarining qulayligi hamda noyob tarixiy-madaniy merosi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, ekologik barqarorlikning izdan chiqishi, infratuzilmaviy zaifliklar, ishsizlik va kichik biznesning yetarlicha rivojlanmagani singari muammolar mintaqani muvozanatli rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, Zarafshon mintaqasida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, raqamli va transport infratuzilmasini takomillashtirish, ta'lim, sog'liqni

saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohalarida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish zarur hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy holati" yilnomalari (2022–2024).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror va Farmonlari (Mintaqaviy rivojlanish, sanoat, agrar va infratuzilma siyosatiga oid hujjatlar).
3. "O'zbekiston Respublikasining milliy hisoblar tizimi" — YaIM va YaHM tarkibiy ko'rsatkichlari. Toshkent, 2023.
4. Buxoro viloyati hokimligi. "Buxoro viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hisobotlari", 2023–2024.
5. World Bank (2023). Uzbekistan Economic Update.

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, dekabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 1-jild, 4-son (dekabr, 2025-yil). – 55 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 9-dekabr

ISBN-978-9910-8337-5-5

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.